

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA**

**MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**IV KURS KUNDUZGI BO'LIM BITIRUVCHISI**

**NING**

**“ДЕВОНУ ЛУҒОТИТ ТУРК” АСАРИДАГИ  
МАҚОЛЛАРНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ”**

**mavzusidagi**

**5220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) yo'nalishida bakalavr  
ilmiy darajasini olish uchun yozgan**

**MALAKAVIY BITIRUV ISHI**

**(2015-2016 - o'quv yili)**

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi,**

**dotsent B.Jo'raeva**

**Buxoro - 2016**

## **Reja:**

Ishning umumiy tavsifi

### **I. Kirish**

1. Maqol – xalq donishmandligining mahsuli
2. M. Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асари ҳақида.

### **II. Asosiy qism**

#### **I bob. “Девону луғотит турк” асаридаги мақолларнинг замон нуқтаи назаридан қиёсий таҳлили**

I. “Devonu lug`otit turk” da ham, hozirda ham mavjud bo`lgan maqollar  
I.1. “Devonu lug`otit turk”dagi shaklini ham, mazmunini ham saqlangan maqollar.

I.2. “Devonu lug`otit turk”dagi mazmuni saqlangan holda obrazlar tizimi o`zgargan maqollar

I.3. Bir qismi unutilib, qolgan qismi saqlangan maqollar

II. “Devonu lug`otit turk” da mavjud bo`lib, hozirda iste’moldan chiqqan maqollar.

#### **II bob. «Девону луғотит турк» асаридаги ҳалқ мақолларининг мавзуйи таснифи**

Меҳнатсеварлик ва дангасалик

Ватанпарварлик

Дўстлик — ҳамжихатлик ва ноиттифоқлик

Донолик ва нодонлик

Мардлик ва қўрқоқлик

Эҳтиёткорлик ва тадбиркорлик

Вафодорлик ва хиёнаткорлик

Одоб ва тарбия

Қадр ва қиммат

Меҳмондўстлик

Яхшилик ва ёмонлик

Тўғрилик, ростгўйлик ва мунофиқлик

Қаноат, сабр-чидам ва сабрсизлик

Соғлик ва саломатлик

Мақтандоқлик ва камтарлик

Инсоф ва адолат, зулм ва адолатсизлик

Сахийлик ва баҳиллик

Баҳт ва баҳтсизлик

Мувофиқлик, тенглик

Табиий ва қонуний ҳодисалар

### **III. Xulosa**

## **I. Kirish**

### **Ishning umumiy tavsifi**

#### **Tadqiqot mavzuining dolzarbliги**

Mamlakatimizning istiqlolga erishishi o`zbek xalqining madaniy-ma’naviy hayotida ulkan ijobiy o`zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo’ldi. Istiqlol tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning ma’naviyati, madaniyati, axloqiy e’tiqodlari milliy ruh va yangi mazmun bilan to`lmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug`aniyevich Karimov “xalqning milliy madaniyati va o`ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo`lmish o`zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to`liq ro`yobga chiqarish”<sup>1</sup> davlat ishi ahamiyatiga molik ekanligini ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, o`zbek tili sohasida ham milliy ruh va milliy imkoniyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. So`nggi yillarda o`zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo`nalishlari rivojlandi. Bular ichida, ayniqsa, tilga izchil

---

<sup>1</sup> Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998, 14-бет.

yondashish va vazifaviy tahlil yo`nalishlari alohida o`rin tutadi. Til va nutq yaxlit bir hodisaning ikki tomoni sifatida belgilandi. Til hodisalari esa til tizimidagi o`rni, roli, nutqda qo`llanishi kabi xususiyatlariga qarab tahlil etila boshlandi.

Hozirgi bosqichda tillarning maqollar majmuasini ilmiy o`rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Maqollar faqat til materiallaridangina yaratilgan emas, balki tilning beqiyos qudrati tufayli vujudga kelgandir. Bu holat nutqda keng qo`llanib kelinayotgan maqollarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni talab etadi.

Maqollar xalqning ma`naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog`liq bo`lib, qisqa, ixcham, ma`no jihatdan salmoq dor birliklar sifatida davr ruhiga mos keladi. Chunki hozirgi mustaqillik, milliy qadriyatlarning tiklanish davri so`zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo`lgan o`zbek adabiy tilini chuqur egallahshi, fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta`sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi.

Shunga ko`ra ushbu malakaviy bitiruv ishida M.Qoshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asaridagi maqollarning qiyosiy tahlili asosiy maqsad qilib olindi.

### **Ishning maqsad va vazifalari**

O`zbek tilshunosligida M.Qoshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asaridagi maqollarning indeks lug`ati tuzilgan bo`lsa-da, ammo asardagi maqollarning qiyosiy tahlili bo`yicha amalga oshirilgan ishlar barmoq bilan sanarli. Shu sababli bu masalani hal etish ushbu malakaviy bitiruv ishi uchun asosiy maqsad sifatida belgilandi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim deb topildi:

- “Девону луготит турк”да ҳам, ҳозирда ҳам истеъмолда бўлган мақолларни аниқлаш;
- “Девону луготит турк”да мавжуд бўлиб, ҳозирги кунда шаклан ўзгарган мақолларни кузатиш;

- “Девону луготит турк”да мавжуд бўлиб, ҳозирги кунда истеъмолдан чиққан мақолларни аниқлаш;

- «Девону луготит турк» асаридаги халқ мақолларини мавзулар бўйича тасниф этиш.

### **Tadqiqot uchun obyekt**

Tadqiqot uchun obyekt sifatida “Девону луготит турк” асари олинди.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi**

Ushbu малакавий bitiruv ishida “Девону луготит турк” асаридаги maqollarining киёсий tahlili amalga oshirildi.

### **Ishning amaliy ahamiyati**

Bu tadqiqotning ilmiy xulosalari o`zbek xalq maqollarini har tomonlama o`rganish uchun imkoniyat yaratadi. Maqollarning leksik xususiyatlariga oid nazariy fikrlar o`zbek tilshunosligida leksikologiya, uslubiyat, til va badiiy mahorat masalalarini tadqiq etish doirasini chuqurlashtiradi. Tadqiqot uchun to`plangan til materiallari o`quv qo`llanmalari tuzishga xizmat qilishi mumkin. Ishdan oliv o`quv yurtlarining filologiya fakultetlarida o`qitiladigan «Hozirgi o`zbek adabiy tili” kursining “Leksikologiya” bo`limi uchun, “O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi” fanining “Maqollar” qismi uchun material sifatida foydalansa bo`ladi. To`plangan faktik materiallar esa tuzilajak ko`p jildli o`zbek xalq maqollari izohli lug`ati uchun qo`l keladi.

### **Tadqiqotning metodi**

O`zbek xalq maqollarini leksik jihatdan o`rganishda dialektikaning in’ikos nazariyasi, shakl va mazmun birligi, miqdor va sifat o`zgarishlari haqidagi ta’limoti metodologik asos bo`lib xizmat qildi. Ishda maqollarni leksik jihatdan diaxron tahlil etishga asosiy e’tibor qaratildi. Misollar tahlilida tavsifiy, miqdoriy,

shuningdek, matniy va komponent tahlil metodlaridan ham foydalanib ish ko`rildi. Rus tilshunosligi va turkiyshunoslikning yetuk vakillaridan V.P.Jukov, A.I.Fedorov, A.V.Kunin, V.N.Teliya, L.I.Royzenzon, Shavkat Rahmatullayev, Azim Hojiyev, Iristoy Qo`chqortoyev, Mashhura Sodiqova, Hamid Ne'matov kabi tilshunoslarning ishlari tadqiqotga nazariy asos bo`lib xizmat qildi.

### **Ishning tuzilishi**

Ish «Kirish», 2 bobdan tashkil topgan “Asosiy qism”, “Xulosa” va “Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati” dan iborat bo`lib, umumiy hajmi betni tashkil etadi.

## **2. Maqol – xalq donishmandligning mahsuli**

Maqol atamasi arabcha “qavlun” (aytmoq, gapirmoq) so`zidan olingan bo`lib, o`zbek tilida u xalq donoligining namunasi bo`lmish aforistik janrlardan birining atamasiga aylangan va ma’qul aytilgan so`z, gap yoki ibora ma’nolarini anglatadi. Bundan ko`rinadiki, janr atamasi bilan uning poetik tabiatini o`rtasida bevosita semantik aloqadorlik mavjud.

Maqollar ko`p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi sababli o`ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida necha martalab sinovlardan o`tadi. Binobarin, maqollar ham shaklan, ham mazmunan juda kam o`zgarishlarga uchrab, uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega bo`ladilar. Har bir maqolning xalq orasida tarqalishi ham uning yaratilishi kabi sekinlik bilan amalgalashadi. Chunki muayyan maqolni qabul qilib oluvchi jug`rofiy muhit uni o`z sharoitida qaytadan sinovdan o`tkazib olgandan keyingina o`z mulkiga aylantiradi. Rus folklorshunosi V.P.Anikin ta`biri bilan aytganda, “Xalq tajribasida bo`lmagan narsa maqolda ham bo`lmaydi”. Xalq tajribasi esa asta-sekinlik bilan asrlar mobaynida to`planib, boyib boradi. Binobarin, ana shu tajribalar bilan aloqadorlikda yuzaga keluvchi maqollar xazinasi ham boyib boradi. Umimiyroq

qilib aytganda, maqollar makon va zamon jihatidan xalq hayotidagi har qanday sabab-oqibat munosabatlarini o`zida aks ettiradi, chunki u mushtday tugilgan xalq donoligining bebaho qomusidir.

Maqollar fikrni lo`nda, aniq va obrazli tarzda bayon etishda nutqimiz uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham V.G.Belinskiy xalq maqol va matallarini “poeziyaning mohiyati” deb hisoblagan edi. Binobarin, xalqning asriy tajribalarida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlarning hamma vaqt nutqimizga mazmuniy salmoq, o`ziga xos ta`sirchanlik baxsh etishi tabiiy bir holdir.

Boshqa xalqlarning maqollarida bo`lgani kabi o`zbek xalq maqollarida ham o`zbek xalqining turmush tarzi, ma`naviy qiyofasi, dunyoqarashi, mehnatga, insonga, hayotga, tabiatga munosabati to`liq o`z ifodasini topgan.

Xalq maqollarining bashariyat hayotidagi ulkan etik va estetik ahamiyati haqida qadim zamonlardan buyon hozirga qadar juda ko`p ibratli gaplar bayon qilinganki, ularning barchasida maqollarning ijtimoiy fikr tarixida favqulodda hodisa ekanligi uqtiriladi.

Maqol xalq og`zaki ijodining juda ixcham, shu bilan birga, sermazmun, eng ta`sirchan bir shaklidir.

Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aql-u farosati, tajribasining yakuni, xalq donishmandligining mahsuli bo`lib, har kim undan o`z didi, mahorati va saviyasiga yarasha foydalanadi, bahramand bo`ladi.

Xalq og`zaki ijodining boshqa hech bir turida xalq aql-u idroki maqollardagidek shu qadar kuchli va rang-barang namoyon bo`lmagan, xalqning milliy xarakteri, ijtimoiy tuzumi, hayoti, dunyoqarashi shu darajada yorqin mujassam bo`lmagan.

Maqol yoshlarning estetik tarbiyasida muhim rol o`ynaydi, ularning badiiy didini oshiradi, nutqqa e`tibor va talabchanlik bilan qarashga hamda to`g`ri,

mantiqiy fikrlashga o`rgatadi, murakkab ijtimoiy, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab olishga yordam beradi.

Maqol – nutqning qaymog`i, suhbatning mag`zi, katta-kichik davrada, yig`inlarda aytildigan gaplarning boli.

Maqollar shuning uchun nutqning ko`rkiki, ular g`oyat murakkab hodisalarning mohiyatini juda yaxshi va ixcham ifodalab beradi. O`zbek tilining emotsional kuchi, jozibasi, rang-barangligi, o`qdan uchqur, qilichdan o`tkir qudrati – xalqimizning maqol va matallarida o`zining eng yorqin, g`oyat obrazli ifodasini topgandir.

Bu jihatdan, xalq og`zaki ijodining o`ziga xos klassik timsoli bo`lgan maqollar, ayni zamonda, xalq tilining ham eng nodir namunasi, ajoyib durdonalaridir, tilimizning ko`rki, husn-u jamolidir. Zotan nutqimizning ta`sirchanligini, obrazliligini, dastlab, ana shu maqollar orqali aniq payqaymiz, bilamiz, shuur etamiz. Xalq ijodi – bitmas-tuganmas bir kon, so`z durdonalarining hamisha noyob, oliy himmat xazinasidir.

Uzukka yoqt ko`z qanday yarashsa, maqol ham notiqning nutqiga, suhbatdoshlarning suhbatiga, muxbirning maqolasiga, yozuvchining tasviriga, donishmandning hikmatlariga ana shunday go`zallik, hayotiylik bag`ishlaydi. Boshqacha aytganda, uzukning gultoji – uning ko`zi bo`lsa, so`z bo`stonining gultoji – maqollardir.

Suhbatlarimizda, og`zaki va yozma nutqimizda maqollandan ijodiy foydalanish bilan birga ularni yana ham charxlab, o`tkirlab ham boramiz, ularga yangidan-yangi ma`no-mazmun kiritamiz, mavjud maqollar qolipi asosida o`zimiz ham yangidan-yangi maqollar, matallar bunyodga keltiramiz. Shoirlarimiz, olimlarimiz, oddiy xalq donishmandlari buning ajoyib namunalarini yaratib bermoqdalar.

O`zbek xalqi o`zining qadimiy madaniyatiga, shu jumladan, jahon adabiyotini boyitishga ma'lum darajada hissa bo`lib qo`shilgan ko`p asrli yozma va og`zaki adabiy merosiga ega.

Xalq donishmandligining mahsuli maqol ana shu adabiy merosning ajralmas bir bo`lagi hisoblanadi.

Dono fikrni, o`tkir haqiqatni, teran mazmunni, so`z xazinasining dur-u javohirlarini o`zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv vositalari orasida eng ta`sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o`ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir.

Ularning kishilik jamiyati va har bir inson hayoti uchun naqadar qimmatli ahamiyatga molik ekanligini jahon donishmandlari qadim-qadimdan e'tirof etib, qayta-qayta uqtirib kelganlar.

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to`playdi, shu tajribani turli vositalar bilan keljak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday ma`naviy merosimiz hisoblanadi. Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha ko`z qorachig`iday asrab, avaylab, sayqal berib, dilida, tilida saqlab kelmayotgan biror xalq yo`q. O`zbek xalqi ana shularning biridir.

Maqollarni o`ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular kishilarning aqlini o`tkirlashtiradi, nutqini ravshanlashtiradi, hayotda to`g`ri yo`lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to`g`ri yechishga o`rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi.

Umuman insoniyat yaratgan maqollarning mavzu doirasi rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me`yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o`z in'ikosini topgan. Qisqasi, tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo`qki, u maqollarda o`z aksini topmagan bo`lmasin, deb dadil aytal olamiz.

Xalqimizning o`nlarcha asrlar davomida to`plangan boy hayotiy tajribasi son-sanoqsiz maqollarda umumlashtirilgan va tipiklashtirilgan. Ularda ota-bobolarimiz bosib o`tgan yo`lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekkan azob-uqubatlarini, teran mazmunli pand-nasihatlarini, qadimgi davrlarda, o`tgan asr va undan keyingi asrlarda yashagan ajdodlarimizning urf-odatlarini, an'analarini ko`ramiz, his etamiz. Ana shu boy ijod durdonalarini imkonli boricha to`la to`plash, chuqur o`rganish va nashr qilib, xalq ommasiga qayta taqdim etish – ezgu va muhim vazifalardandir.

Maqollar zamonlar osha tobora sayqallanadi, pishiydi, mazmuni teranlashadi.

Maqollar publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda, ayniqsa, badiiy asarlarda keng qo`llaniladi. Ular personajlar nutqiy tavsifida, nutqning uslubiy ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqollarning nutqiy ko`rinishlari xilma-xil va rang-barangdir, ularning ayrimlari “tabiiy” bo`lib, maqollarning ichki tabiatidan kelib chiqadi, qolganlari esa individual xarakterga ega bo`lib, u yoki bu so`z san`atkorining estetik maqsadi, xohish-irodasi, til vositalaridan foydalanishdagi mahorati bilan aloqadordir.

### **М.Қошғарийнинг “Девону луготит турк” асари ҳақида**

Махмуд Қошғарийнинг «Девону луготит турк» асари ўзбек тили тарихида яратилган асарлар орасида ўзининг илмий қийматига кўра алоҳида ажralиб туради. Олим бу асар устида узоқ йиллар ишлади, кўп йиллар юртма-юрт кезиб материал тўплади, туркийлар яшаган кенг ва катта худудни бирма-бир кезиб чиқди, уруғлар, қабилалар, халқларнинг турмуш тарзини, урф-одатларини, касб-корларини, тураг жойларини, нуфузларини аниқлади ва уларнинг тилларига хос хусусиятларни синчиклаб ўрганди.

Махмуд Қошғарий бунинг натижасида туркий қабилаларнинг деярли барчасини ва уларнинг тилларини жуда пухта, мукаммал аниқлашга муваффақ бўлди. Ҳар бир сўзнинг қайси қабилага тегишли эканини, сўзларнинг маъно ва шакл хусусиятларини, уларнинг қадимги ва ҳозирги вариантларини, қабилалар

тилидаги сўзлар талаффузидаги мослик ва фарқларни ҳар томонлама аниқлаб чиқди. Ўз фикрини далиллаш учун халқ қўшиклари ва мақолларидан кенг фойдаланди.

Ўзбек тили тараққиётида ўзига хос аҳамиятга эга бу асар Басим Аталай, В.В.Бартольд, А.Н.Самойлович, П.К.Жузье, С.Е.Малов, Андрей Николаевич Кононов, Александр Константинович Боровков, Н.А.Баскаков каби чет эл олимлари ва Абдурауф Фитрат, Солих Муталлибов, Натан Маллаев, Ғани Абдураҳмонов, Ҳамид Неъматов каби ўзбек тилшунослари томонидан маълум даражада тадқиқ этилган.

Маълумки, «Девону луготит турк» асарининг қўлёзмаси 1914 йилда Туркияning Диёрбакир шаҳрида топилади. Асарнинг бу қўлёзмаси Махмуд Кошғарий ўзи ёзган нусхадан — асл нусхадан қўчирилган. Бу китобни қўчирувчи хаттот Муҳаммад бин Абу Бакр ибн Абдул Фотих ал Совий ал Дамашқийдир. Бу нусха «Девону луготит турк» ёзилгандан сўнг салкам 200 йил ўтгач, яъни 1266 йилда қўчирилган. Қўлёзма 319 варакли катта бир жилдан иборат бўлиб, вараклари тарқоқ, йиртиқ, боши охири номаълум, саҳифалари қўйилмаган. Ҳозир у Истанбулда, Фотих кутубхонасининг Али Амирий фондида сақланмоқда. Диёрбакирлик кекса китоб муҳлисларидан Али Амирий мазкур асарни шу йили фан оламига маълум қиласди.

«Девону луготит турк» қўлёзмаси учга бўлинниб, биринчи ва иккинчи жиллари 1915 йилда, учинчи жилди 1917 йилда Истанбулда Килисли Рифат муҳаррирлигига нашр этилди. Тилшунос Босим Аталай асарни турк тилига биринчи бўлиб мукаммал таржима қиласди. Асарнинг учала томи 1939-1941 йилларда нашр этилди. Босим Аталай «Девону луготит турк»ни турк тилига биринчи бўлиб мукаммал таржима қилибгина қолмай, уни ҳар томонлама илмий жиҳатдан текширган, Кошғарий ижодини тинмай тарғиб қиласди олимдир.

Абдулаҳад Нурий «Девону луғотит турк»даги афоризм ва мақолларнинг 251 тасини тўплаб, «Оталар сўзи» номи остида нашр эттириди. Шокир Улкутоширнинг «Қашғарли Маҳмуд» номли кичик бир асарида Маҳмуд Кошғарийнинг ҳаёти, ижоди ва «Девону луғотит турк»нинг мазмуни баён этилган.

Ғарбий Европада шарқшунос олим Карл Броккељман 1920 йилда «Девону луғотит турк» тўғрисида биринчи мақоласини эълон қилди, кейинчалик асардаги сўз, исм ва жой номларининг рўйхатини тузиб, қайси том ва саҳифасини белгилаб, алоҳида китоб (кўрсаткич) тарзида немисча сўз бошиси билан 1928 йилда нашр эттириди; «Девону луғотит турк»нинг тил ва адабиёт учун аҳамияти, унинг таржимаси тўғрисида ҳам бир неча мақолалар ёзди.

Атоқли турколог Сергей Малов Тошкентда ишлаган даврида ҳам, кейинчалик ҳам «Девону луғотит турк»га катта аҳамият берди. Унинг «Қадимги туркий ёзув ёдгорликлари» номли монографиясида асарга оид қимматли фикрлар ифодаланган ва каттагина библиография берилган.

Шарқшунос П.К.Жузье 1926-1928 йилларда «Девону луғотит турк»га бағишлиб иккита мақола ёзди. П.К.Жузье асли фаластиналк араб бўлиб, у 1871 йилда туғилган. Қозон университетида таълим олган, Қозонда ва Бокуда профессорлик қилган, 1942 йилда Бокуда вафот этган. У мақолаларида «Девону луғотит турк» асарига жуда юксак баҳо берди, унинг катта аҳамиятини уқтириб ўтди. У ёзади: «Маҳмуднинг «Девону луғотит турк» асарида ўша вактда Қорахонийлар давлати таркибиға кирган Шимолий-Шарқий қабилаларнинг деярли ҳаммаси тўпланган. Дадил айтиш мумкинки, яқиндагина (XIX аср охирларида) Россияда ва Шарқда ўрганилган туркий тиллар фонетикаси ва этимологиясининг асосий қонунлари XI асрда ёк Маҳмуд томонидан аниқланган ва ўрганилган эди. Маҳмуднинг бу текширишлари шу қадар кенг ва чуқурки, ҳатто, бундай асар XIX асрда ёзилганда ҳам унга шон-шараф бўларди. Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк»и сингари асар

фан оламида кейинги асрларда ҳам яратилган эмас. Унинг асари бамисоли «Туркий қомус»дир».

Ўзбек олимлари орасида «Девону луготит турк» асарини илмий асосда ўрганишни Туркистон жадидчилик ҳаракатининг ғоявий раҳнамоси Абдурауф Фитрат бошлаб берди. Унинг «Девону луготит турк» асарига оид тадқиқотларидан бири «Энг эски турк адабиёти намуналари» деб номланади. Мазкур тадқиқот-мажмуя 1927 йилда ислоҳ қилинган араб ёзувида чоп этилган бўлиб, унда Фитрат туркшунослик илмининг асосчиси Маҳмуд Қошғарийнинг машҳур «Девону луготит турк» асаридаги шеърий парчаларни йиғиб, уларни адабий тур ва жанрларга кўра таснифлаган. «Бир-икки сўз» деб номланган сўз бошисида ўзбек тили ва адабиёти тарихи, туркий тилшунослик ва ўзбек адабиётшунослиги учун муҳим, аҳамиятли фикрлар ифодаланган. Улар жумласига қўйидагиларни айтиш мумкин:

- а) Маҳмуд Қошғарий, В.В.Радлов ва А.Н.Самойловичларнинг туркий тиллар таснифига оид илмий қарашлари муфассал таҳлил этилган;
- б) янги ўзбек адабий тилининг асосий манбалари тўғри белгиланган;
- в) «Девону луготит турк» асаридаги шеърий парчалар адабий тур ва жанрларга кўра аниқ таснифланган;
- г) «Девону луготит турк» асарининг илмий-тарихий аҳамиятига тўғри баҳо берилган.

Юқорида айтиб ўтилганидек, «Девону луготит турк» асарининг қўлёзмаси 1914 йилда Туркияning Диёрбакир шаҳрида топилади, 319 сахифали бу қўлёзманинг фотонусхасини Килисли Рифат 1915-1917 йилларда уч томдан иборат қилиб, Истанбулда нашр эттиради. Фитрат ушбу нашрдан фойдаланиб, уни тадқиқ этишга ҳаракат қилган. Дастлаб у туркшунослар Маҳмуд Кошғарий, В.В.Радлов ва А.Н.Самойловичнинг туркий тиллар таснифлариға ўз муносабатини билдириб ўтади.

Маълумки, В.В.Радлов таснифида, асосан, ҳудудий-географик нуқтаи назар асос қилиб олинган ва шунга кўра туркий тиллар тўрт гурухга бўлинган. Улар қуидагилардир: 1.Шарқий гурух (Бу гурухга олтой, чулим, хакас, шор, тува ва энасой туркларининг тили киради). 2. Ғарбий гурух (Бу гурухга қирғиз, қозоқ, қорақалпоқ, татар, бошқирд тиллари киради). 3. Ўрта Осиё гурухи (Бу гурухга уйғур ва ўзбек тиллари киради). 4.Жанубий гурух (Бу гурухга туркман, озарбайжон ва турк тиллари киради).

А.Н.Самойловичнинг таснифида эса туркий тиллар олтида гурухга бўлинган ва бу таснифга фонетик тамойил асос қилиб олинган. А.Н.Самойловичнинг таснифида туркий тиллар гурухи қуидагилардан иборат: 1. Булғор гурухи. Бу Р гурухи номи билан ҳам юритилади (Бу гурухга эски булғор ва ҳозирги чуваш тиллари киради). 2. Шимоли-Шарқий ёки уйғур гурухи. Бу Д гурухи номи билан ҳам юритилади (Бу гурухга уйғур, тува, салар тиллари киради). 3. Шимоли-Ғарбий ёки қипчоқ гурухи. Бу Тау гурухи номи билан ҳам юритилади ( Бу гурухга олтой, қирғиз, қумик, татар,бошқирд, қозоқ тиллари киради). 4. Жануби-Шарқий ёки чиғатой гурухи. Бу Тағлиқ гурухи номи билан ҳам юритилади (Бу гурухга ўзбек ва уйғур тиллари киради). 5. Ўрта ёки қипчоқ-туркман гурухи. Бу Тағлиқ гурухи номи билан ҳам юритилади (Бу гурухга қипчоқ-туркман тиллари киради). 6. Жануби-Ғарбий гурух. Бу Ол гурухи номи билан ҳам юритилади (Бу гурухга озарбайжон, турк, гагауз тиллари киради).

Фитрат мазкур таснифларни таҳлил этиб бўлгач, улар бўйича ўз хulosаларини қуидагича ифодалайди: «Ҳар ҳолда бу таснифларнинг кўпиди асосий нарсалар бўлмағани маълум. Булардан бошқа бирда тарихий тасниф Махмуд Қошғарийнинг «Девони луғат»ида бордир». Олимнинг мазкур фикридан қуидагиларни англаш мумкин:

1) рус туркшunosларининг таснифида жуда кўп камчиликлар мавжуд, уларда туркий тиллар бир томонлама тасниф этилган. В.В.Радловнинг илмий ишларида туркий тиллар ҳудудий-географик нуқтаи назардан,

А.Н.Самойловичнинг илмий асарларида эса туркий тиллар бир хил лингвистик белгисига асосланиб тасниф этилган. Бундай йўл тутиш хатолик ва чалкашликларни келтириб чиқариши аниқ. Шу учун уларнинг таснифлари мукаммаллиқдан йирок;

2) мазкур таснифлардан бир неча аср илгари, яъни XI асрда яратилган тасниф ҳам мавжуд бўлиб, у Маҳмуд Қошғарийга тегишилдири. Аёнки, олим туркий халқларнинг ҳудудий-географик жиҳатдан яшаш манзиллари ва туркий тилларнинг лингвистик хусусиятларини алоҳида эътиборга олиб, туркий тилларни иккита гурухга бўлади:

1. Турк ёки хоқоний туркчаси тиллари.

2. Ўғуз тиллари.

Маълумки, «Девону луготит турк» асарида мазкур гуруҳдаги тилларнинг фонетик, морфологик ва лексик хусусиятлари муфассал таҳлил этилган, шуларга асосланиб улар тасниф этилган. Бу тарихий тасниф анча содда, аниқ ва қисман мукаммал эканлигини Фитрат алоҳида таъкидлаб, ундан кенг фойдаланиш, яратилажак янги таснифларга, албатта, асос қилиб олиниши лозимлигини айтади. Асарга тарихий фонетика, морфология ва лексикология учун қимматли материаллар берувчи манба сифатида юқори баҳо беради. Чиндан ҳам унда юқоридаги йўналишлар бўйича анча кенг ва тўлиқ маълумотлар мавжуд.

Абдурауф Фитрат «Девону луготит турк» асарида мингдан ортиқ сўзнинг изохи берилганлигини қайд этади. Айрим адабиётларда асардаги сўзлар миқдори олти мингдан зиёдроқ деб кўрсатилган. «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси»да эса саккиз мингдан ортиқ сўзнинг изохи берилганлиги кўрсатиб ўтилган (III, 230) Ҳозирча бу масалада аниқ тўхтамга келингани йўқ. Фитрат тадқиқотида «Девону луготит турк» асарининг ёзилиш санаси ҳам кўрсатиб ўтилган. Шу ўринда мазкур асарнинг ёзилиш санаси хусусидаги айрим қарашларга тўхталиб ўтсак. Баъзи ўқув адабиётларида асарнинг ёзилиш

санаси 1072-1083 йиллар деб қайд этилган бўлса (Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 56), айрим илмий манбаларда 1068 йил (Абдураҳмонов F., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973. –Б. 16), «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси»нинг 3-жилдида 1071-1072 йиллар (230-б.), 5-жилдида эса 1072 йил (77-б.) деб кўрсатилган. Фитрат «Девону луғотит турк» асари ҳижрий 464-466 йилларда ёзиб тугатилганлигини қайд этади. Буни милодий йил бўйича ҳисобласак, 1072-1074 йилларга тўғри келади. Бу борада Абдурауф Фитратнинг фикри ҳақиқатга яқин.

Фитрат мазкур асарни тадқиқ этиш жараёнида жуда кўплаб илмий ва бадиий асарларни ўрганиб чиқади. Шулар жумласига В.В.Радлов ва А.Н.Самойловичларнинг илмий тадқиқотларини, «Қутадғу билиг», «Ҳибатул-ҳақойиқ», «Муқаддиматул-адаб» каби бадиий ва луғат асарларни айтиш мумкин. Олим шулар асосида «Девону луғотит турк» асаридаги шеърларни изоҳлаган, вазн, қофия, мавзу бўйича таҳлил ва тасниф этган. Фитрат ўзбек халқининг, кенгроқ маънода айтсак, туркий халқларнинг ёзма манбаларини ўрганишда, уларни тарғиб этишда алоҳида ўринга эга. Ундан қолган илмий мерос ҳозир ҳам ўз аҳамияти ва долзарблигини асло йўқотган эмас.

Қошғарийшуносликка муносиб ҳисса қўшганлардан бири, шубҳасиз, Солиҳ Муталибовдир. У «Девону луғотит турк» ҳақида бир қанча мақолалар, монографиялар ёзди, асарни тўла равишда ўзбек тилига таржима қилди ва нашр этди. С.Муталибов кўзга кўринган кошғарийшуносларидан бўлиб, бу соҳанинг энг йирик мутахассисларидан биридир. «Девону луғотит турк» асарининг таржимасига берилган изоҳларнинг ўзи алоҳида бир илмий ишдирки, бу кўп вақт ва кенг билимни талаб қиласди.

Халқимизнинг бой тарихини ҳар томонлама ўрганиш, унинг тараққиёт босқичларига хос жиҳатларни умумлаштириш мухим масалалардан ҳисобланади. «Девону луғотит турк» асари ўзбек халқи тарихида мухим аҳамиятга эга ноёб манбадир.

## **II. Asosiy qism**

### **I bob. “Девону луготит турк” асаридаги мақолларнинг замон нуқтаи назаридан қиёсий таҳлили**

Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri Mahmud Qoshg`ariyning “*Devonu lug`atit turk*” nomli qomusiy asaridir. Bu asar turkiy tillarning o`sha davrdagi fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida to`la ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir. Shu bilan birga turkiy xalqlarning xalq og`zaki ijodi namunalarini aks ettirgan yirik badiiy asardir.

“*Devonu lug`otit turk*” dagi maqollarni hozirgi davr nuqtai nazaridan 2 turga ajratish mumkin:

#### **I. “*Devonu lug`otit turk*” da ham, hozirda ham mavjud bo`lgan maqollar** Bu o`z navbatida uchga bo`linadi:

**I.1.** “*Devonu lug`otit turk*”dagi *shaklini ham, mazmunini ham saqlagan maqollar*.

1. *Tilküj öz iñiga yurca* узуз болур — тулки ўз уясига қараб ирилласа (улиса, хурса) қўтири бўлади. Бу мақол ўз элини, уруғини ва мамлакатини ёмонловчиларга қаратади [I, 88].

Bugungi kundagi muqobili: *Tulki o`z iniga qarab irrillasa qo`tir bo`ladi*.

2. *Сартнїң азукї арїг болса, юл ўзә јёр* — савдогарнинг моли тоза, бешубҳа бўлса, йўл устида ейди. Бу мақол айтган сўзининг уддасидан чиқа олмаган, қуруқ мақтанчоқларга нисбатан қўлланилади [I, 97].

Bugungi kundagi muqobili: Савдогарнинг моли тоза, бешубҳа бўлса, йўл устида ёяди.

3. *A:ч нё ѡё мас, тоқ нё тё мас* — оч нималар емайди, тўқ нималар демайди [I, 108].

4. *Kiши аласї ічтін, јилкї аласї таштїн* дейдилар, яъни, одамнинг оласи (бузук фикри) ичида; йилқиники тошида, сиртида. Бу мақол дилидаги хиёнатни яшириб, ёқимли муомала қилувчиларга нисбатан қўлланади [I, 117].

Bugungi kundagi muqobili: *Одамнинг оласи ичида, молнинг оласи ташида*.

5. *Бёш әрәңäк түз әрмäс* — беш күл (бармоқ) баробар эмас. Шунга ўхшаш, одамлар ҳам бир-бирларидан фарқ қиладилар [I, 143].
6. *It iсiрmas, ат тәпмäс тәмä* - ит қопмайди, от тепмайди дема [I, 188].
7. *Cuw iчүрмäcrä сүт бёр* — сув ичирмасга сут ичир. Сенга ёмонлик қилганга ҳам яхшилик қил, деган маънода ишлатилади [I, 224].
8. *Кёңашилiк бiлiк ўзräшиүр, кёңäшиciz бiлiк опрашур* — маслаҳатлик иш борган сари яхшилашиб боради, бемаслаҳат иш борган сари бузилишга юз тутади [I, 235].

Bugungi kundagi muqobili: *Маслаҳатли иши тарқамас.*

9. *Күзäкү узун болса әлик күймäс* — косов узун бўлса, қўл куймас. Бу мақолда бола чақаси кўп одам фаровон яшаши ҳақида гапирилади [I, 418].
10. *Tëwëj cilkincä әшäкка јук чiқар* — туя силкинса, ундан бир эшакнинг юки чиқади. Бу мақол кичик ишни ташлаб, катта ишга киришишга ундағайтилади [II, 286].

Bugungi kundagi muqobili: *Туя силкинса, ундан бир эшакнинг юки тушади.*

11. *Атасi ачiг алмiла jëсä оғлiнiң tisi қамар* — отаси аччиқ олма еса, ўғлининг тиши қамашар. Бу мақол отаси қилган жиноят, отаси ўлгач, боласига ҳам иснод тегизади деган маънода қўлланади [II, 360].

12. *Барчiн јамагi барчiнқа, қарiш јамагi қарiшқа* – ипакликка ипаклик ямоқ муносиб бўлса, юнгга юнг ямоқ лойикдир. Бу мақол ҳар нарса ўзига муносиб бўлиши керак, деган маънода қўлланади [III, 35].

13. *Лiлан кёндю әргiсiн bilmäс, тёwaj боjnин әргi тёр* — илон ўзининг эгрилигини билмайди–да, туяниң бўйинини эгри дейди [I, 147].

14. *Сачiр тгудiн қорқmиши куши қирқ jıl azri jigač ўзä қонмас* — тузоқдан бир марта қўрққан қуш қирқ йилгача айрилиқ ёғочга қўнмайди [II, 383].

Bugungi kundagi muqobili: *Тузоқдан бир марта қўрққан қуш қирқ йилгача айри ёғочга қўнмас.*

15. *Қанiг қан bilä jumас* – qonni qon bilan yuvilmaydi, ya’ni to`polon to`polon bilan bostirilmaydi [III, 74].

Bugungi kundagi muqobili: *Qonni qon bilan yuvib bo`lmaydi.*

17. *T w j m n b қoj apa jaismas* – tuya mingan odam qo`y orasiga yashirinmaydi [III,68].

18. Bugungi kundagi muqobili: *Tuya mingan odam qo`y orasiga yashirinmaydi.*

19. *Арслан қаріса, січсан  тін к з з р* - arslon qarisa, sichqon inini poyleydi [III, 279].

Bugungi kundagi muqobili: *Arslon qarisa sichqon inini poyleydi.*

21. *Ашич ажур т б м алтун, қаміч ажур м н қајдаман?* — қозон айтур: тубим олтин, чўмич айтур: мен кайдаман? Бу масал ўзининг кимлигини биладиган таниш кишилар олдида мақтанувчи кишига нисбатан айтилади [I, 86].

**I.2.** “*Devonu lug`otit turk”dagi mazmuni saqlangan holda obrazlar tizimi o`zgargan maqollar*

1. *Їи jara   нда, сарп асїг нда* - ish vaqtida, kezida o`rnida bajariladi, ammo savdogar faqatgina foyda kutadi (savdogar agar foydasini bilsa, eng seviklisini ham sotadi.) [III, 20].

Bugungi kundagi muqobili: *Temirni qizig`ida bos. Qolgan ishga qor yog`ar.*

2. *Жатн ң яғл г тік с нд (н)*  зн ң қанл г juzruk jis – yotning yog`li ovqatidan o`zingga yaqinlarning mushti (shapalog`i) yaxshi [III, 49].

Bugungi kundagi muqobili: *Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o`pka yaxshi.*

3. *Жаз н қат ланса к ши н с ш н р* – yozda tirishgan kishi, qishda sevinadi [III, 174].

Bugungi kundagi muqobili: *Yozgi mehnat, qishki rohat.*

4. *Bilm ш к б лм з к к ши д (н) jis* - notanish kishidan tanish shayton yaxshi [III,175].

Bugungi kundagi muqobili: *Dushmaningdan qo`rqma, munofiqdan qo`rq.*

5. *Аг з ж с  к з у зур* — оғиз еса, кўз уялур. Бу мақол бирор нарсасини еганлар унинг ҳожатини чиқаришдан тортиниши мумкин эмаслигини кўрсатиш учун айтилади [I, 89].

Bugungi kundagi muqobili: *Yegan og`iz uyalar.*

6. *Iрсак ёрга тёгмас, ёwäk ёwrä тёгмäс* — эркакка рағбатли, эр учун шошилган хотин эрга ёлчимайди, шошма-шошар одам ўйига етолмайди. Чунки шошилиш натижасида (бу ишда) кутилган шароитларни ҳисобга олмайди. Шунингдек, шошилган эркак ҳам ўйига ета олмайди. Чунки шошилиш билан отини ҳалокатга етказади-да, ўқиниб қолади... Бу мақол шошилмасликка ундан айтилади [I, 129].

Bugungi kundagi muqobili: *Shoshgan qiz erga yolchimas.*

7. *Ума кёlcä қут кёlip* — меҳмон келса, қут келар — сенга меҳмон келса, у билан бирга барака, қут, баҳт келади. Кўноқни яхши қарши оладилар, малол олмайдилар [I, 118].

Bugungi kundagi muqobili: *Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan.*

8. *Отуз узгуч бিplä очўрмäс* — ўтни аланга билан ўчирилмас. Бу мақол тўполонни (фитнани) тўполон (фитна) билан эмас, сулҳ билан битириш мумкин деган мазмунда қўлланади [I, 187].

Bugungi kundagi muqobili: *Қонни қон билан ювиб бўлмас.*

9. *Иккі буегра iгäshўr отра кёкäгўн јанчилур* — икки эр ҳайвон олишади, орада кўкагун (пашша) янчилади. Бу мақол икки амир уришиб, орада кучсизлар янчиладилар деган маънода ишлатилади [I, 196].

Bugungi kundagi muqobili: *Икки туя олишар, ўртада пашша янчилар.*

### **I.3. Bir qismi unutilib, qolgan qismi saqlangan maqollar**

1. *Қуш қанатиң, ёр атiң* — қуш қаноти билан, эр оти билан [I, 70].

Bugungi kundagi muqobili: *Қуш қаноти билан.*

2. *Эрiңäңä әlik қарi боз ўм тикамäс* — бўйдоқ одамга эллик газ бўз ҳам иштонликка етмайди, чунки бегоналар унга ён босмайдилар. Бу мақолни уйланишга ташвиқ қилинаётган йигитга нисбатан айтилади [I, 139].

Bugungi kundagi muqobili: *бўйдоқ одамга эллик газ бўз ҳам иштонликка етмайди.*

3. *Арпасiз ат ашумас, арқасiз алп чёrik сijумас* — арпасиз от қир ошолмайди, ёрдамчисиз йигит (баҳодир) жангда енга олмайди. Бу мақол ишда ҳамкорликка чақириш маъносида қўлланади [I, 145].

Bugungi kundagi muqobili: *арпасиз от қир ошолмас.*

4. *Азуклуғ аруқ әрмäс* — озиғи бор одам сафарда тез толмайды, чарчамайды [I, 164].

Bugungi kundagi muqobili: *Ozig`lik ot horimas.*

5. *Tашіғ ісру өпміш кәрәк* — тошни чайнашга қодир бўлмаган киши, уни ўпиши керак. Бу мақол мақсадга эришиш учун киши иш устида юмшоқ муомалада бўлишига унданбайтилади [I, 176].

Bugungi kundagi muqobili: *Оғирнинг устидан, енгилнинг остидан.*

6. *Қуруғ жігач әгілмäс,*

*Курміш кіріш түггілмäс.*

Куруқ ёғоч эгилмайды, қуриган кириш (новда) боғланмайды, тугулмайды. Бу мақол бирон нарсаны ишлатишда ҳаддан ошириб юборилгандан кейин у нарса аввалги ҳолига қайтмайды, деган мазмунда ишлатилади [I, 206].

Bugungi kundagi muqobili: *Қуруқ ёғоч эгилмас.*

7. *Өкүйүчің ўміндә артатур* — ўзини мақтовчи, албатта, иштонини булғатади, яъни мақтанчоқ кўпинча гапнинг уддасидан чиқолмай хижолат тортади. Бу мақол ўзини мақтамасликка унданбайтилади [I, 211].

Bugungi kundagi muqobili: *Аҳмоқ ўзини мақтар.*

8. *Сінамаса арсіқар, сақінмаса утсуқар* — синамаса одам алданади, аввалда ишнинг натижаси ҳақида ўйламаса, енгиллади (ютқизади). Бу мақол ишда тажрибага суюниш кераклигига, ўйлаб иш қилишига унданбайтилади [I, 245].

Bugungi kundagi muqobili: *Синамаган отнинг сиртидан ўтма.*

9. *Қуруқ қашуқ ағізқа жарамас,*

*Қуруқ сөз қулоққа жақиши мас* — қуруқ қошиқ оғизга ёқмас, қуруқ сўз қулоққа ёқмас. Бу мақолда бирордан ёрдам сўраш учун унга ҳам бирон фойда кўрсатиш керақ, деган маънода қўлланади [I, 364].

Bugungi kundagi muqobili: *Қуруқ қошиқ оғиз йирттар.*

10. *От тұтұңсіз болмас, жігіт жазуқсіз болмас* — олов тутунсиз бўлмас, йигит гуноҳсиз бўлмас [I, 380].

Bugungi kundagi muqobili: *Олов тутунсиз бўлмас.*

11. *Эвәк синак сўтка тўшиўр* — шошқоқ пашша сутга тушади (ва ғарқ бўлиб ўлади). Бу мақол ишда шошмасликка унданбайтилади [II, 21].

Bugungi kundagi muqobili: *Шошган пашша сутга тушар.*

12. *Тајсан жўрўпраённи milkў сёwmäc* — югурик (чопқир) тозини тулки севмайди. Чунки този тулкини олади. Бу мақол замондошлари орасида илмли бўлиб, уларнинг ҳасад ва душманликларига дучор бўлган кишига айтилади [II, 23].

Bugungi kundagi muqobili: *Югурик тозини тулки суймас.*

13. *Жуғурқанда артуқ азак кўсўлса ўшийўр* — одам оёғини кўрпасидан ортиқ узатса, оёғи увишади, совуқ қотади. Бу мақолни одам ўз ҳаддидан ошмасликка ундалиб айтилади [II, 158 ].

Bugungi kundagi muqobili: *Кўрпангга қараб оёқ узат.*

14. *Aui mamiёї туз жу ғрин ѡёмäc* – osh tuz bilan totli, lekin lagan bilan yolg`iz tuzning o`zi yeyilmaydi [III, 38].

Bugungi kundagi muqobili: *Oshning ta'mi tuz bilan.*

15. *Jau om кўјмäc, жалафар öлмäc* – yosh (ho`l) o`t yonmaydi, xabari qancha og`ir va dahshatli bo`lsa ham elchiga o`lim yo`q [III, 55].

Bugungi kundagi muqobili: *Elchiga o`lim yo`q.*

16. *Табуг таши жарап, таши башиёз жарап* - xizmat toshni yoradi, ammo tosh boshni yoradi [III, 66].

Bugungi kundagi muqobili: *Qattiq tosh boshni yoradi.*

17. *Ömlўг јїнжу ѡёрда қалмас* – тешилган дур ерда қолмайди, уни бир оладиган чиқади. Бу мақол канизаклар қизлигича узок қолиб кетмайди, унга бир уйланадиган одам топилади деган маънода қўлланади [III, 37].

Bugungi kundagi muqobili: *Тешик мунчоқ ерда қолмас.*

18. *Қумтуғقا қоша язар* – baxtli odamga davlat qo`sha-qo`sha (ustma-ust) keladi [III, 68].

Bugungi kundagi muqobili: *Berganga qo`sha berar.*

## **II. “Devonu lug`otit turk” da mavjud bo`lib, hozirda iste’moldan chiqqan maqollar.**

1. *Anasī tə̄siljyk jywqa janap, ožlii tə̄mik қosha қanap* – onasi hiyla qilib yupqa non yopsa, bolasi ziyraklik qilib qo`sha-qo`sha (ikkita-ikkitadan) og`ziga soladi [III,41].
2. *Jagīn ḫərcä kərəl jynədakī tə̄gir* – dushmaningda bo`lsa ham mol bo`lsin, eng kami dushman otining tezagi tegadi, uni yoqib foydalanasan [III, 51].
3. *Bor bolmazīn sirkä bolma* – sharob bo`lishdan oldin sirka bo`lma [III, 133].
4. *Cügüm cəliliqä қazīq қasīq* – Tol daraxti uchun namlik qancha yaxshi bo`lsa, qayin daraxtiga qattiqlik shuncha munosib [III, 148].
5. *Jarīn bulganса, əl bulğanur* – kift suyagiga kulfat yetsa, mamlakatga kulfat yetadi [III, 28].
6. *Taz am taφarçī bolmas* – terisi yo`l-yo`l olacha ot yuk tashiydigan bo`lmaydi. Chunki uning tirnog`i yomondir [III, 163].
7. *Eip mojīn bāsi aqrīsa қamuyə mojīn bāsi aərīmas* – bir din boshlig`ining boshi og`risa hamma din boshliqlarini boshi og`rimaydi. Bu maqol o`rtoqlari orasida ular yegan narsani yeishdan tortingan kishilarga nisbatan qo`llaniladi [III,184].
8. *Im əilcä əp ölmäc* – im bilsa er o`lmas (kishi yashirin belgini bilsa, nohaq o`lmaydi) [I,74].
9. *Kүndä ipük joq, bə̄għdä қijjik joq* дейдилар – quyosh kulchasida darz (teshik) yo`q bo`lganiday, bek va’dasida ham xilogarchilik qaytish yo`q [I,100].
10. *Jīraқ jēр cawīn arқīsi kəldürp* – uzoq shahar (yer) xabarini karvon keltirar [I, 122].
11. *Чақса тұмтұнұр, chalса білінұр* — чақмоқ тош чақылса, олов тутади, сұз эшитилса, мақсад билинади [II, 31].
12. *Əl қalđi töry қalmas* - шахар ташланар, расми ташланмас. Бу мақол одам расмга қараб иш қилишига ундағайтылади. [II, 32].

13. *Tütüshimägïnchä týzýlmäc týbirmägïnchä achiłmas.* Урушмагунча, қаршилашмагунча, яраш бўлмайди, шамол қўзғолмагунча, ҳаво очилмайди. Бу мақол қаршилашган икки киши орасини келиштириш улфатлаштириш истаган кишига нисбатан қўлланади [II, 75].

14. *Tütýn қopursa, iulänür* — ким тутунни қўзғотса, ўзига тутайди. Бу мақол бирор фитнани қўзғатган кишига ҳам у фитна алами етади, деган мақсадда қўлланади [II, 75].

15. *Öwlik tозgурса кози ѡолқа болур* — уй эгаси меҳмонни тўйдирса, меҳмон кўзи кетишга отланиб, йўлда бўлади. Бу мақол зиёфатдан сўнг кетмоқ учун узр сўраган меҳмонга нисбатан қўлланади [III, 205].

16. *Tamciz tўrk bolmas, bасisiz börk bolmas.* Форслар бор ерда турклар албатта бор. Бошсиз бўрк бўлмагани каби, турксиз форс бўлмайди. Бош бор ерда бўрк, албатта, бор [II, 306].

17. *Kilich tamiksa iish juncir, ёр tamiksa öt tunchir* — қилич зангласа, ботирнинг ҳоли ёмон бўлади. Чунончи, турк эронли ахлоқи билан юрса, гўшти ўзгаради — ҳидланади. Бу мақолни ботирликка ундалган киши ҳақида ҳар жинснинг ўз жинси билан яшashi ҳақида айтилади [II, 326].

18. *Opraq jasikdih tозлуғ ja чиқар* — эски ёй идишидан букланган ёй ҳам чиқади [III, 24].

19. *Kimin bila қаш bolса, jaishiň jaqmas* (ҳикматли сўз) — қош тоши (у бир оқ, тиник тошдир, одамлар уни узукка кўз қилиб тақадилар) кимда бўлса, унга чақмоқ зарар бермайди. Чунки у тошнинг табиати шундай. Ҳаттоки, у тошни бўзга ўраб ўтга ташланса, бўз ҳам, тош ҳам куймайди. Бу синалгандир. Ташна одам оғзига қўйса, ташналиқдан қутулади [III, 28].

20. *Kilnu bilcä, қизil këzär, jarany bilcä, jaishi këzär* — хотин нозу карашмани билса қизил ранг ипакли кияди, ёқиши билса, кўк ипакли кияди, яъни эр ҳурматига сазовор бўлган кийим кийинади [III, 28].

Maqollarning “Devonu lug`otit turk”da mavjud bo`lgan mazmuni saqlangan holda obrazlar tizimi o`zgarishining, bir qismi unutilib, qolgan qismi saqlanishining

yoki asarda mavjud bo`lib, hozirda iste'moldan chiqqishining qator sabablari bo`lib, ularni ilmiy tadqiq etish kelgusidagi ishlarimizdandir.

## ИККИНЧИ БОБ

### «Девону луготит турк» асаридаги халқ мақолларининг мавзуйи таснифи

#### Меҳнатсеварлик ва дангасалик

1. Эрмäгугä ёшик арт болур — ялқовга эшик остонаси ҳам тоғ тепасидек кўринади [I, 78].
2. Тікмäгінча ўнмäс, тіләмäгінчä болмас — экилмагунча — дарахт ўтқазилмагунча, ҳосил унмайди (бирор мақсад кетидан юриб) исталмагунча, топилмайди, қўлга кирмайди. Бу мақол ишда мақсадга етишиш учун тиришмоқ керак деган маънода қўлланади [II, 28].
3. Тёвёж сілкінсä ёшакка јук чіқар — түя силкинса, ундан бир эшакнинг юки чиқади. Бу мақол кичик ишни ташлаб, катта ишга киришишга ундан айтилади [II, 286].
4. Кічікда қатігланса улгазу сёшнүр — ёшлиқда тиришиб ҳаракат қилган одам катта бўлгач севинади [II, 311].
5. Эрік ёрні jaғліә, ёрмагү баші қанліә — тиришқоқнинг лаби ёғлик, эринчоқнинг боши қонлик, чунки тиришқоқ кўп ишлаб, яхши таомлар, гўшт, ёғлар топади. Шу билан у мой ошайди. Эринчоқ ўзининг ялқовлиги билан ишдан қочади. Хафалиқдан бошига уради, уни қонатади. Бу матал ялқовликни ташлашга, ғайрат билан ишлашга ундан айтилади [I, 100].
6. Эрмäгүгä булїт јўк болур — ялқовга булут сояси ҳам юк бўлади [I, 156].
7. Эмгäк ёкіндä қалмас — меҳнат бўш кетмайди [I, 134].
8. Хан ѹши болса, қатун ѹши қалїр — ҳоқоннинг иши бўлса, хотин иши қолдирилар [I, 388].
9. Кётäн кордї кёрäгү јўзти — бунинг маъноси меҳнатни кўриб, қийинчилик тортганидан чодирини орқалади, демакдир [I, 384].
10. Бёриниң ортақ қузгуниң ѕигач бошинда — қузғун чия бўрининг овидан фойдаланишда унинг ўртоғи. У ўзининг овлаган нарсасини дарахт устида

ейди. Бу мақол арабларнинг оғилда ётиб, ўртада ўтлайдилар деган мақолларига ўхшайди [I, 412].

11. *Kök көрді кәрагү жазті* — меҳнат ва мاشаққат күрди-ю ўтовини орқасига юклаб олди [I, 418].

## **Ватанпарварлик**

1. *Tilkү öз ініга урса узуз болур* — тулки ўз уясиға қараб ирилласа (улиса, хурса) қўтири бўлади. Бу мақол ўз элинни, уруғини ва мамлакатини ёмонловчиларга қаратади [I, 88].

## **Дўстлик–ҳамжиҳатлик ва ноиттифоқлик**

1. *Куши қанатїн, ёр атїн* — куш қаноти билан, эр оти билан [I, 70].
2. *От тёсä агїз кўјмас* — ўт деган билан оғиз куймас. Бу мақол сўзлашдан тортилганларга нисбатан ишлатилади [I, 78].
3. *Агїз жёсä кёз ујазур* — оғиз еса, кўз уялур. Бу мақол бирор нарсасини еганлар унинг ҳожатини чиқаришдан тортиниши мумкин эмаслигини кўрсатиш учун айтилади [I, 89].
4. *Ўрі қобса угуши оқлішур, жағї кёлсä имрäm тёбрäшур* — фарёд кўтарила, уруғлар тўпланадилар, душман келса, ҳамма йигилади. Яъни, фарёд чиқса, унга ёрдам бериш учун уруғлар тўпланадилар; душман келса, ҳамма уни ўлдириш учун отланади. Бу мақол ишларда айгоқлик ва меҳрибонлик, бирдамликка ундан айтилади [I, 115].
5. *Іңän iңрасä боту бозлар* — ургочи түя инграса, эркак түя бўзлайди (товуш беради). Бу мақол яқинлар доим бир-бири ҳақида қайғурадилар деган мазмунда кўлланади [I, 142].
6. *Арпасиз ат ашу мас, арқасиз алп чёрік сїјумас* — арпасиз от қир ошолмайди, ёрдамчисиз йигит (баҳодир) жангда енга олмайди. Бу мақол ишда ҳамкорликка чақириш маъносида кўлланади [I, 145].
7. *Арқасиз ёр чёрік сїјумас* — ёрдамсиз қаҳрамон жанг сафларини синдиrolмайди [I, 148].

8. *Әтмілі тіріңақлі әзірмәс* — эт тирноқдан айрилмас. Бу мақол яқинларға қарата айтилади, яғни яқын кишилар бир-бирларидан айрилмайдилар, чунончы эт билан тирноқни бир-биридан айириб бўлмагани каби [I, 187].

9. *Қачіш болса қая көрмәс* — халқда шов-шув қўзғалса, ҳеч ким бир-бирига боқмайди [I, 350].

10. *Қуруқ қашуқ ағиңқа жарамас,*

*Қуруқ сөз қулоққа жақиши мас* — қуруқ қошиқ оғизга ёқмас, қуруқ сўз қулоққа ёқмас. Бу мақолда бирордан ёрдам сўраш учун унга ҳам бирон фойда кўрсатиш керак, деган маънода қўлланади [I, 364].

11. *Нёча жітік бічәк әрсә өз сабін жанумас* - пичоқ қанча ўткир бўлса ҳам, ўз сопини йўнмайди. Бу мақол ўз ишини бажаролмай, бошқалар иши ҳақида сўзловчиларга қўлланади [I, 366].

12. *Кўзәкү узун болса әлік кўймәс* — косов узун бўлса, қўл куймас. Бу мақолда бола чақаси кўп одам фаровон яшashi ҳақида гапирилади [I, 418].

13. *Отуғ узгуч бірлә очурмәс* — ўтни алнга билан ўчирилмас. Бу мақол тўполонни (фитнани) тўполон (фитна) билан эмас, сулх билан битириш мумкин деган мазмунда қўлланади [I, 187].

### **Донолик ва нодонлик**

1. *Әндік ума әwlікні ағірлар* — бефаҳм меҳмон уй эгасини хурматлайди [I, 130].

2. *Құт бәлгүсі білік* — баҳт белгиси илм ва ақлдир [I, 403].

3. *Булғақ әгюш болса, қачан білгің жётар,*

*Jaңшақ тәлім сајраб анї тамғақ қатар.*

Халқда фитна кўпайса, ақл озаяди ва тўғри йўлни тополмай қолади. Бехуда сўзлар кўпайиб кетса, оғиз қуриб жағ қайишади. Бу мақол ўйлаб сўзлашга ундалиб айтилади [I, 434].

### **Мардлик ва қўрқоқлик**

1. *Алп жағіда, алчақ жағіда* — ботир душман билан тўқнашганда, олишганда, ювош — тиришишда синалади [I, 77].

2. *Алп чөрікдә, білгә тірікда* — ботир жанг алангасида синалади, доно мажлисда синалади [I, 369].

### **Әхтиёткорлик ва тадбиркорлик**

1. *Ім билса* әр олмас — им билса эр ўлмас (киши яширин белгини билса, ноҳақ ўлмайды) [I, 74].

2. *Ашің нәчә ал билса, азіг анча жол билір* — овчи қанча ов хийлаларини билса, айик ҳам шунча қочиши йүлларини билади. Бу мақол икки тажрибали киши тортишиб қолганда сўзланади [I, 94].

3. *А:лін арслон тутар, күчін ујук туттас* — хийла билан арслон тутилар, куч билан уюқ тутилмас. Бу мақол куч билан ишни битира олмаганларга алоҳида тадбир қўллаш керак деган маънода қўлланади [I, 110].

4. *Журт кічік болса, анут бәдүк ур* — идиш тешиги кичик бўлса, катта - воронка қўй. Бу мақол кичик ишни катта қилиб қўрсатадиган кишига нисбатан қўлланади [I, 119].

5. *Азїн кіши нәні нән санмас* — бошқа кишининг моли қўлингда бўлса ҳам сеники ҳисобланмайды. Чунки у қайтарилади [I, 124].

6. *Тағиғ уқруқїн әгмас, тәңізни қајзїкїн бўкмас* — «Тоғ арқон билан эгилмайды, денгиз қайиқ билан бекилмайды». Бу мақол катта ишни арзимаган сабаб билан тўхтатиб бўлмаслик мазмунида қўлланади [I, 126].

7. *Izlik болса әр олдимас, iчlik болса ат яғримас* — Чориқ бўлса, одамнинг оёғи оғримайды, тўқим бўлса, от яғир бўлмайды. Бу мақол иш кетини ўйлашга унданб қўлланган [I, 129].

8. *Андуз болса, ат олмас* — “росан ўти ёнингда бўлса, от йўлда қорин оғриғидан ўлмайды”. Бу мақол сафарга чиқувчиларни пухта ҳозирланишга унданб айтилган [I, 138].

9. *Азуклуғ аруқ әрмас* — озиғи бор одам сафарда тез толмайды, чарчамайды [I, 164].

10. *Күмүш күнгә урса алтун азақін кәlip* — кумуш қүёшга қүнса, олтин үз оғи билан келади. Бу мақолни маълум мақсадни амалга ошириш учун пулни аямай сарф қилишга ундаға айтилади [I, 177].

11. *Tашіг ісру опміш кәрәк* — тошни чайнашга қодир бўлмаган киши, уни ўпиши керак. Бу мақол мақсадга эришиш учун киши иш устида юмшоқ мумалада бўлишига ундаға айтилади [I, 176].

12. *Отүз узгуч біrlä öчүрмäс* — ўтни аланга билан ўчирилмас. Бу мақол тўполонни (фитнани) тўполон (фитна) билан эмас, сулҳ билан битириш мумкин деган мазмунда қўлланади [I, 187].

13. *Аллар біrlä урушма, бёglär біrlä турушима* — ботирлар билан уришма, амирлар билан хусуматлашма, тиклашма [I, 192].

14. *Усуқміша сақїг қамуғ сув көрүнүр* — чанқаган кишига ҳар бир сароб сув бўлиб кўринади. Бу мақол «мухтож одам ҳар бир нарсадан ўз ҳожатини чикишини ўйлайди», деган мазмунда ишлатилади [I, 199].

15. *Жалїңүқ урулмїш қап ол, ағзї жазїлїб алқїнур* — одам боласи пуфлаб шиширилган меш кабидир; оғзи очилса, ел уни йўқотади, сўндиради [I, 204].

16. *Тулум ануңса, қулун болур,*  
*Тулум унұңса, болун болур.* — Душманига (карши) қурол ҳозирлаган киши қулун (той) топади, қурол ҳозирлашни унуган киши асир бўлади. Бу мақол ишларда олдиндан ҳозирлик кўриш лозим эканлигига ундаға айтилади. [I, 221].

17. *Тўзўн біrlä уруш, утун біrlä ўстармä* — ювош одам билан уриш, чунки сен уни босишинг мумкин, уятсиз, юзсиз одам билан уришма. Чунки у сени шарманда қиласи [I, 226].

18. *Кёңашилик біlіk ўзрашиўр, кёңашисіз біlіk опрашуур* — маслаҳатлик иш борган сари яхшилашиб боради, bemaslaҳat иш борган сари бузилишга юз тутади [I, 235].

19. *Сїнамаса арсїқар, сақїнмаса утсуқар* — синамаса одам алданади, аввалда ишнинг натижаси ҳакида ўйламаса, енгилади (ютқизади). Бу мақол

ишда тажрибага суюниш кераклигига, ўйлаб иш қилишга ундаң айтиласи [I, 245].

20. *Jaқадақи јалғазалі әлікдәкі ічгінур* — ёқасига түкилган овқатни ялаш билан овора бўлгач киши қўлидаги коса ва шу каби нарсалардан айрилади. Бу мақол бирон нарсага эҳтиёж тушганда фойдаланиш учун қўлдагини эҳтиёт қилишга ундаң қўлланади [I, 254].

21. *Bir тујїн башї азрїса, қамуз тујїн башї азрїмас* — бир гайри дин каттасининг боши оғриса, ҳаммасининг боши оғримайди. Бу мақол дўстлари мувофиқ топиб истаганлари, еган-ичганлари ҳолда, бирининг буни истамаганлигини англатиш учун қўлланади [I, 272].

22. *Jaғїнї ашақласа, башича чїқар* — душманни кичик ҳисобланса, бошга чиқади, яъни бу билан бошни ҳалок қилади, деган мазмунни англатадилар. Эҳтиёт бўл ва душманни кичик ҳисоблама, демоқчи бўладилар [I, 297].

23. *Бош нёңә ѹзї болмас* — бўш нарсага эга йўқ, демакдир. Бу мақол билан ўз молини пухта сақлашга ундалади [I, 318].

24. *Aвчї нёча тёф бїлсә азїг анча ѡол бїлїр* — овчи қанча хийла билса, айиқ ҳам қочиш учун шунча йўл билади [I, 320].

25. *Ол кёчіш нї сув ёлттї* — у кўприкни сув ва сел олиб кетди. Бу мақол бўлар иш бўлгандан кейин уни топиш (тўғрилаш) мумкин эмас, деган маънода қўлланади [I, 350].

26. *Кузугда сув бар ѵт бурнї тёғмäс* — қудукда сув бор, аммо ит тегмайди. Бу мақол бир ишни истаб, унга эриша олмайдиган ёки бирор қўлида бўлган таомни кўриб сукланувчи, лекин етиша олмайдиганларга қўлланади [I, 356].

27. *Балиқ сувда, кўзи таштїн* — балиқнинг ўзи сувда, кўзи четда. Бу мақол нарсанинг ичида туриб тушунолмай қолувчиларга нисбатан қўлланади [I, 360].

28. *Jазағ атї чаруқ, кўчи азуқ* — яёв оти чориқ, кучи озик, яъни яёв одамнинг оти унинг чорифи ва кучи, қуввати овқатидир. Бу мақол йўлда оёқ

чақаланиб ва кишининг ўзи заифлашиб қолмаслиги учун юқоридаги икки нарса кераклиги хақида айтилган [I, 362].

29. *Қајнар öкүз кәчіксіз болмас* —тез оқар катта сув кечиксиз (күприксиз) бўлмайди. Бу мақол бирон ишда иккиланиб, чўчиб турган кишига тасалли бериш учун қўлланади [I, 371].

30. *Қілну біlса қїзйл қїзäр,*  
*Јарану біlса jashil кіzäp.*

Хотинлар эри билан сухбат истаганда қизил ипакли кияди, ялиниш ва хушомадгуйлик вақтида яшил кийим кияди. Хотинлар ҳақидағи бу мақол мақсадга эришиш, ёқимли муомалада бўлишни эслатиш мақсадида ишлатилади [I, 375].

31. *Сабанды сандірїши болса, öртўгундә iртäши болмас.*

Ер ҳайдаш вақтида пухталик бўлса, хирмонда англашилмовчилик бўлмайди. Бу мақол кейин англашилмовчилик, жанжал чиқмаслиги учун ишни бошда пишиқ қилиш керак деган маънода қўлланади [I, 382].

32. *Қарға қарісін кім bіlіp,*  
*Киши аласін кім тапар.*

Қарғанинг ёшидан қарисини ким айира олади, кишининг кўнглини ким била олади [I, 401].

33. *Tашғач ханнің турқуси тәlіm тәңlама॒зіб бічmas* — Хитой хоқонининг ипак газмоли кўп, лекин ўлчамай кесилмайди. Бу мақол ишни бошида пухта ўйлаб қилишга унданб, исрофгарчиликка қарши қаратса айтилади [I, 402].

34. *Тёгма॒ кіши ёз болмас, жат jaгуқ тўз болмас* — ҳар бир киши ўзингдай бўлмайдики, унга сир айтиб ишонсанг, суюнсанг, бегона ва якинлар бир хилда бўлмайди [I, 406].

35. *Нёчә мундуз örcä ёши ёзгу, нёчә ёгрі ёrcä жол ёзгў* — ёлғизлиқдан кўра қанча аҳмоқ бўлса хам, ҳамроҳ яхши. Чўлда боши оққан томонга кетгандан кўра, қанча ёгри, қингир-қийшиқ бўлса хам, йўл яхши. Чунки (йўлсиз мақсадга етиб бўлмайди) йўл орқалигина мақсадга етилади [I, 427].

36. *Тоқум жүзүб қудруқта бічæk сїма* — мол терисини шилиб олинга, думида пичноқни синдирма [I, 438].

### **Вафодорлик ва хиёнаткорлик**

1. *Кök тәмýр кәрү турмас* — кўк темир бекор турмайды, етган жойини яралайды [I, 442].

2. *Қул jaғi ït böri* — қул душман, у қўлидан келса эгасининг молидан олиб, фурсат топиб қочишнинг пайига тушади. Ит ҳам хонадон учун бўридир. Чунки у ейдиган нарса топса, ундан ўзини тия олмайди. Бу мақол қулнинг хўжайинига кам вафо қилишини билдириш учун сўзланади [I, 324].

3. *Кök kîrsün, қїзїл чїксун* дейдилар, яъни ваъда бузилса, бу қўк кирсин, қизил чиқсин, яъни қонга беланиб чиқсин. Бу аҳд бузилса, темир сени ўлдирсин, ўч олсин демакдир. Чунки улар темирни ҳурмат қиласилар [I, 342].

### **Одоб ва тарбия**

1. *Улук jaғїrї огулқа калїr* — от курагидаги яғир болаларига мерос бўлиб қолади. Чунки пай томирлари у ерга тўпланганлиги учун тез тузалмайди [I, 98].

2. *Ёрдам баши mil* — одобнинг боши тил. Ширин тилли бўлган киши юқори мартаба топади [I, 131].

3. *Їтқа унум атса улдаң jёmas* — «итга уят келса, орият қиласа, поча ташласанг ҳам, емайди. Бу мақолни зарур ўринларда ёмон бир ишдан уялиб, ўзини тортувчиларга қўлланади [I, 138].

4. *Оғлақ jılıkcız, оғлан bılıkcız* — «эчки боласида илик йўқ, ёш болада ақл йўқ» [I, 141].

5. *Куруғ jїgач ёгilmäc,*

*Курмийи кіriш tүgylmäc.*

Куруқ ёғоч эгилмайди, қуриган кириш (новда) боғланмайди, тугулмайди. Бу мақол бирон нарсани ишлатишда ҳаддан ошириб юборилгандан кейин у нарса аввалги ҳолига қайтмайди, деган мазмунда ишлатилади [I, 206].

6. *Улугнї улугласа, құт болур* — одам қарияларнинг ёшини хурматласа, баҳтли бўлади [I, 297].

7. *Эрдäm баши тїл* — адаб ва фазилатнинг боши тил. Бу ерда тил яхши сўз демакдир [I, 323].

8. *Кёриш жағїрї огулқа қалїр* — от кифтининг яғири ўғлига мерос қолади, чунки кифт бўғинлар тўпланадиган жой бўлиб, у ердаги яғир тезда тузалмайди. Бу билан [ундай] яғирдан сақланишга буюрилади [I, 350].

9. *Қадаш тёміш қојмадуқ,*

*Қазїн тёміш қојмїш.*

Қариндошларга оға-ини келди дейилса, унга эътибор берилмади. Қайин она (ота) келди дейилган эди, дарров унга қаради. Бу мақолни қайин она ва қайин оталарни ҳурмат қилишга қаратса куёвларга ишлатилади [I, 383].

10. *Қул савї қалмас,*

*Қазїл бағї жазїлмас.*

Кексалар сўзи, насиҳати бекор кетмайди, толнинг ҳўл новдасининг боғи ёзилмайди [I, 387].

11. *Қалїн қулан чуфғасїз болмас* — моллар подаси йўлбошчисиз бўлмайди. Бу мақол улуғ ишда бошқаларга эргашиб ва итоат қилишга буюрилган кишиларга нисбатан айтилади [I, 400].

12. *Tilїн тёргїгä тёгїр* — ширин, ёқимли сўз билан киши дастурхонга этишади. Бу мақол киши ўз фазилатини тили орқали билдириши керак, деган арабча мақолга ўхшайди [I, 404].

13. *öIdäči січған муш ташақї қашїр* — ўладиган сичқон мушук ташоғини қашийди. Ўлимни бир нарсага боғлиқ бўлган киши ўша нарса атрофига ўзини уриши каби ҳолларда айтилади [I, 411].

14. *Jaxshaq ўзä от болмас,*

*Jaқрақ bilä ушумт болмас.*

Тоғлар чүққисидаги тошлоқларда ўт бўлмайди. Шунингдек, калларда уят бўлмайди [I, 435].

15. *Қалїн қаз қулавуз суз болмас* — ғоз тўдалари йўлбошчисиз учмайди. Бу мақол ҳамма ишда ўзидан кўра йўл биладиганроқ кишига бўйсунишга ундан айтилган [I, 449].

16. *Булдачї бузагу ёкўз ара бўлгўлўк* — хўкиз бўлади деб гумон қилинган бузоқ, хўкизлар орасида ёшлигига ёқ маълум бўлиб қолади. Яхшилик умид қилинадиган ёш, зийрак, ботир йигитларга айтилади [I, 480].

17.

### Қадр ва қиммат

1. *Ёкўз азақї болгїнча, бузагу баши болса жік* — хўкизниңг оёғи бўлгунча, бузоқниң боши бўлган яхшироқ. Бу мақол «Мустақиллик бўйсунишдан яхши» деган маънода қўлланади [I, 91].

2. *Кёб сўкўтгә қуш қонар,*  
*Кўркўлук кішігә сўз кўлир.*

Шохи кўп, шохлари ўралиб кетган дарахтга қуш қўнади, яхши кишига сўз (мақтов) келади [I, 310].

3. *Жігач ўчина жёл тёгір,*  
*Кўрклик кішігә сўз кўлир.*

Дарахт учига шамол тегади, юмшоқ одамга сўз етади. Шунинг учун у ўзини эҳтиёт қилиши керак дейилади [I, 310].

*Кіздәгі кіз жіпар* — мушк қутичаси сандиқда сақланиб қолади. Бу мақол хотинлар оғзининг ҳидини мушкка ўхшатилган вактда қўлланади [I, 316].

3. *Кім кўр болса, кўшваз болур* — довюрак одам мағурур бўлади [I, 314].  
4. *Бар бақїр юқ алтун* — бор мис (қадрсиз), йўқ олтин (қадрли). Кўлда бор бўлган нарса мисдек қадрсиз, қўлда бўлмаган нарса олтиндек қадрли. Бу мақол яқинлар орасида хўрланиб юрган киши, кейин йўқлигига қадри билиниши маъносида қўлланади [I, 342].

5. Әwдәгi бузагу öкүз болмас — уйда ўсган бузоқ ҳеч вакт хўкиз бўлмайди. Бу мақол ёшлигидан таниш бўлган йигит мартаба топиб кўтарилса ҳам, ёшлигига кўриб юрган уруқ-аймоқлари орасида кичик кўринишига ишлатилади [I, 417].

### **Меҳмондўстлик**

1. *Ануқ отру туңса, юққа санмас* — меҳмонга бор таом тақдим қилингач, кўрмадим демайди. Бу мақол уй эгаси бор нарсасини меҳмонга тақдим қилиши зарурлигига ишорат қилиб айтилади [I, 98].

### **Яхшилик ва ёмонлик**

1. *Бёш әрәңäк тўз әрмäс* — беш кўл (бармоқ) баробар эмас. Шунга ўхшаш, одамлар ҳам бир-бирларидан фарқ қиласидилар [I, 143].

2. *Лілан кёндў ёгрісін біlmäc, тёwaj боjnїn ёgrі тёр* — илон ўзининг эгрилигини билмайди–да, туюнинг бўйинни эгри дейди [I, 147].

3. *Алп әріг jawрїтма, ікїлач арқасїн jаgрїтма* – ботирларни ранжитма ва ҳолсизлантирма, учқур от орқасини яғир қилма. Бу сўзлар билан бекларга насиҳат қилинади [I, 157].

4. *It iсїrmас, ат тёпмäс тёмä* - ит қопмайди, от тепмайди дема [I, 188].

5. *Cuw iчўрмäсrä сўт бўр* — сув ичирмасга сут ичир. Сенга ёмонлик қилганга ҳам яхшилик қил, деган маънода ишлатилади [I, 224].

6. *Қуши jawuzї сағїзган,*

*Jїgaч jawuzї азған,*

*Jўр jawuzї қазған,*

*Будун jawuzї барсаған.*

Кушнинг энг ярамаси, ёвузи зағизғон, дарахтнинг энг ярамаси азғон дарахти, бу шундай дарахтки, унинг оқ ва сариқ гули, зиракка ўхшаб осилиб турадиган қизил меваси бўлади. Бизда бу дарахтни токзорларнинг этагига экилади. Чунки у ўтинликка ярамайди, ёқилганда оловда парчаланиб сачрайди, уйдаги кийим ва бошқа нарсаларни куйдиради. Ерларнинг ярамаси ўнқир-

чүнқир ер. Чунки ўтов қуришга ҳам, экин экишга ҳам ярамайди. Одамнинг ярамаси Барсағонда турувчилардир, чунки улар ёмон қилиқли, баҳил кишилардир [I, 412].

7. *Tұзұн бірлә уріш;*

*Утун бірлә төрішмә.*

Юмшоқ одам билан олиш, у сендан енгилиши мумкин, қаттиқ юзли одам билан олишма, у сени енгади [I, 392].

### **Тұғрилик, ростгүйлик ва муноғиқлик**

1. *Kүндә ірүк жоқ, бәзгәдә қијік жоқ* дейдилар. Яъни қуёш қулчасида дарз (тешик) йүқ бўлганидай, бек ваъдасида ҳам хилофгарчилик, қайтиш йўқ. Бу мақол бекларни ўз ваъдаларига хилоф қиласликка ундаш мақсадида қўлланади [I, 100].

2. *Irlir myutryug'i а:з болур* — касалнинг васият қилиши унинг учун яхшилик келтиради. Бу мақолни касалнинг васият қилишига ишорат қилиб, унинг олдида айтилади [I, 108].

3. *Kiши аласі ічтін, јілкі аласі таштін* дейдилар, яъни, одамнинг оласи (бузук фикри) ичида; йилқиники тошида, сиртида. Бу мақол дилидаги хиёнатни яшириб, ёқимли муомала қилувчиларга нисбатан қўлланади [I, 117].

4. *Бўтўн ўмлўк қанча қолса олтурур* — бутун иштонлик (иштони бутун) қандай хоҳласа, шундай ўтираверади. Бу мақол гуноҳсиз одам, ҳеч қандай тухмат билан қораланмайди, деган мазмунда қўлланади [I, 229].

5. *Соқақ бічар, сақал охшар* — яширинча энкак кесадио, соқолни ўйнайди. Бу мақол кишини алдаш учун бузук мақсадини яшириб, ширин сўзловчилар ҳақида айтилади [I, 279].

6. *Алім кәч қалса, азақланур* — олинадиган нарса қарздорда узок вакт қолса, оёқ чиқаради, яъни қарз берган одам қарзини ундириш учун унинг кетидан юради [I, 288].

## **Қаноат, сабр-чидам ва сабрсизлик**

1. *A:ч нә жәмас, тоқ нә тәмас* — оч нималар емайди, түк нималар демайди [I, 108].

2. *Iрсақ әрга тәгмас, әwäk әwrä тәгмäс* — эркакка рағбатли, эр учун шошилган хотин эрга ёлчимайди, шошма-шошар одам ўйига етолмайди. Чунки шошилиш натижасида (бу ишда) кутилган шароитларни хисобга олмайди. Шунингдек, шошилган эркак ҳам ўйига ета олмайди. Чунки шошилиш билан отини ҳалокатга етказади—да, ўқиниб қолади... Бу мақол шошилмасликка ундан айтиласди [I, 129].

3. *Aч iwäk тоқ möläk* — оч таомни күрганда шошилиб қолади, лекин таом түқнинг парвосига ҳам келмайди [I, 368].

4. *Jазїдақi сүwlін әзäргäлi,*  
*әwдägi тaқaгу iчgїна.*

Қирғовул овига чиқсанг, уйдаги товуқни унутма. Бу мақол йўқ нарсага ишониб, қўлидагилардан айрилиб, қуруқ қолувчиларга нисбатан айтиласди [I, 418].

5. *Эијäк aյur башiм болса,*  
*Cундурида сув iчкаjmäн.*

Эшак айтади: бошим омон бўлса, денгиздан сув ичаман. Бу мақол мақсадга эришиш учун узун умр орзу қилувчиларга нисбатан қўлланади [I, 454].

6. *Köl ўргүнчä коз ўрса jëg* – кўлни пуфлагунча, чўғни пуфлаган яхши. Бу мақол кичик ишни ташлаб катта ишга уринувчиларга айтилган [I, 324].

## **Соғлик ва саломатлик**

1. *Tirig әсән болса тан öкүш кörür* (масал) — одам эсон (соғ) бўлса, қизиқ нарсаларни кўп кўради [I, 93].

2. *Әсәндä әwäk joқ* — соғлиқда шошилиш йўқ. Бу ибора ишлаганда шошилмаслик, ҳовлиқмаслик кераклигини билдириш учун қўлланади [I, 106].

3. *Азұқлуғ аруқ әрмәс* — озиғи бор одам сафарда тез толмайды, чарчамайды [I, 164].

4. *Әміклик урагут көсакчі болур* — әмизикли хотин иштаҳали бўлади. Шунинг учун унга истаганини берилади [I, 168-169].

5. *Ачїглїг ёр шёбўк қарїмас* – майшатлик одам тез қаримайды [I, 163].

### **Мақтанчоқлик ва камтарлик**

1. *Ашиғ ајур түбўм алтун, қаміғ ајур мён қајдаман?* — қозон айтур: тубим олтин, чўмич айтур: мен кайдаман? Бу масал ўзининг кимлигини биладиган таниш кишилар олдида мақтанувчи кишига нисбатан айтилади [I, 86].

2. *Сартнїң азукі ариғ болса, юл ўзә јёр* — савдогарнинг моли тоза, бешубҳа бўлса, йўл устида ейди. Бу мақол айтган сўзининг уддасидан чиқа олмаган, қуруқ мақтанчоқларга нисбатан қўлланилади [I, 97].

3. *Өкўнўчї ўміндә артатур* — ўзини мақтовчи, албатта, иштонини булғатади, яъни мақтанчоқ кўпинча гапнинг уддасидан чиқолмай хижолат тортади. Бу мақол ўзини мақтамасликка ундан қўлланади [I, 211].

4. *Қарға қазға откўнса бутї сїнур* — қарға кучда, учишда ўзини ғозга ўхшатса, бути синади. Бу мақол қўлдан келмаган ишга бехуда уринмасликка, ўз ҳолига яраша ишлашга ундан айтилади [I, 255].

5. *Қонақ башї сәзräкі jіg* — тариқ бошининг камдон бўлиши кўпдон, сердон бўлишидан фойдалироқдир. Чунки кам дон бўлса, дон тўла ва йирик бўлади, агар сердон бошоқ бўлса, донлари майда ва кичик бўлади. Бу мақол қийинчилик ва заҳматни кам тортиб, мақсадга етишни хоҳловчиларга қўлланади [I, 365].

6. *Тўшўк сувда bälгyrär* — дабба шиши сув кечганда билинади. Бу мақол бирор иш қилишда мақтанувчига ишнинг яхши, ёмонлиги кейин билинади, деган мазмунда қўлланади [I, 368].

7. *Ат тәгүзлүгі аж болмас* — отнинг оқлиги ойдан тиндиrmайди, ойнинг ўрнини босмайди [I, 465].

8. *Сунділач іши ёрмәс ѡртүгүн тәпмәк* — хирмон янчмоқ саъванинг иши эмас. Бу мақол кучсиз бўла туриб, катта ишга интилевчи, лекин бажара олмовчиларга нисбатан қўлланади [I, 479].

### **Инсоф ва адолат, зулм ва адолатсизлик**

1. *Ортақ ёрдән артуқ алмас* — ўртоқ ўртоғидан (тақсимда ҳиссани) кўп олмайди. Бу мақол инсофга чақириш мақсадида қўлланади [I, 125].

2. *Қаз қонса, ёрдак көлиг ігәнүр* – «ғоз қўзғалса, ўрдак кўлни эгаллайди». Бу мақол халқ орасидан бирор катта киши кетгандан кейин унинг ўрнига ундан тубан бир кишининг қўтарилишини эслатиш учун қўлланади [I, 129].

3. *Іккі буғра ігәиүр отра кёкәгүн јанчилур* — икки эр ҳайвон олишади, орада кўкагун (пашша) янчилади. Бу мақол икки амир уришиб, орада кучсизлар янчиладилар деган маънода ишлатилади [I, 196].

4. *Қолдачїқа миң jaғaқ.*

*Барча білә аjруқ тајақ.*

5. Тиланчига минг ёнгоқ, буларнинг устига яна суюнадиган ҳасса ҳам бериш менга лозимдир [I, 394].

### **Сахийлик ва баҳиллик**

1. *Өд кәчәр кіши тојмас, јалінуқ оғлі мәнү қалмас* — замон ўтар, киши тўймас, инсон боласи мангу қолмас [I, 79].

2. *Атан јўқи аш болса, ачқа аз кёрүнүр* - атан (ахта қилинган тұя) нинг юки озиқ-овқат бўлса ҳам, оч одамга оз кўринади [I, 105].

3. *Қағун қарма болса, ізїсї іккі ёлігін тәгір* – қовун талон бўлса, эгаси икки қўли билан тортади. Бу мақол киши ўз молига ҳаддан ортиқ ҳирс қўяди, мазмунида қўлланади [I, 388].

4. *Нәгін тутар бёкләjү ёзі jәмäc,*

*Саранлікін жіглају алтун жігар.*

5. Одамлар табиати ҳақида айтади: ўзи емай молини бахиллик қилиб қаттиқ тутади. Бахиллик билан мол устида йиғлайди, олтин түплаб, охири бошқаларга ташлаб кетади [I, 462].

6. Қіз кіші сауі жоріглі болмас – бахил одамнинг овозаси чиқмайды, шұхратланмайды. Бу мақол одамларни яхши ном чиқариш сахий бўлиш учун унданбай айтилади.

### **Бахт ва баҳтсизлик**

1. *Құтсуз құзугқа кірсә, құм жағар* — баҳтсиз құдуққа кирса қум ёғар. Суви қурийди [I, 426].

2. *Құлақ әшітсә көңіл білір,*

*Көз көрсә юзік көлір.*

Қулоқ сўзни эшитса, қўнгил билади; аммо кўз севиклисини қўрса, шавқ қўзғалади [I, 219].

### **Мувоғиқлик, тенглик**

1. *Эркäч әтi әм болур, әчкү әтi жәл болур* — така гўшти даво бўлади, ургочи эчки эти ел бўлади. Яъни: така гўшти даво бўлади, эчки эти қоринни дам қиласади [I, 121].

2. *Қiрқ jılقا тёгiн бай чiғaj түзләнүр* — қирқ йилгача бой билан камбағал тенглашади, яъни вақт ўзгариши билан ёки ўлим билан шундай бўлади [I, 333].

3. *Кўңа бақса, көз қамар* — кунга боқса, кўз қамашади [I, 327].

4. *Сöкүт cüliqa қазиң қасиңа* — тол дарахтидаги хўллик ва майнлик толнинг ўзига ярашиқ, қайин дарахтининг қаттиқлиги унинг ўзига муносибдир. Бу мақол ҳар нарса ўз аслига бориши тўғрисида қўлланади. [I, 338].

5. *İt чақiрi атқa тёгiр,*

*Ат чақiрi їтқa тёгмäс.*

Чағир күзли ит отга тенглашади, аммо чағир күзли от итга тенглаша олмайды, чунки бу хил отнинг күзи хира бўлади. Бу хил отдан четланмоқса буюрадилар [I, 344].

6. *Tëzäk қарда жатмас,*

Эзгў ёсиз қатмас.

Тезак ўзининг иссиқлигидан қорда ётмас, (корни эритиб юборади), (щунга ўхшаш) ёмон яхши билан қотишмайди, аралашмайди [I, 368].

7. *Jër басруқї тағ,*

Бузун басруқї бўг .

Ернинг оғирлиги тоғ билан, халқнииг оғирлиги беклар билан. Бу мақол ер тоғ билан тинч туради-ю, халқ беклар билан тинч туради, чунки улар йўлга соладилар, деган маънода қўлланади [I, 433].

8. *Kiz birlä kўräishmä, қїсрәк birlä jarüima* — қиз билан ўйнашма, чунки улар кучли ва сени енгади, ёш қисир биялар билан пойга қилишма, у айғирдан кўра кучлидир, у ҳам сенинг устингдан ғалаба қиласди (сенни енгади). Бу мақол Хоқония қизларидан бири Султон Масъуднинг никоҳ кечаси ўз эрини оёғи билан чалиб йиқитганидан кейин хоқонийларда юзага келгандир [I, 439].

## Табиий ва қонуний ҳодисалар

1. *Jirak jëp sawiñ arkiñ këld ў rüp* — Узоқ шаҳар (ер) хабарини карвон келтирас [I, 122].

2. *Эріңаңа ёлик қарї бўз ўм тікämäc* — бўйдоқ одамга эллик газ бўз ҳам иштонликка етмайди, чунки бегоналар унга ён босмайдилар. Бу мақолни уйланишга ташвиқ қилинаётган йигитга нисбатан айтилади [I, 139].

3. *Kisi қонуқї от* — қишининг зиёфати оловдир, ўтдир [I, 320].

4. Татсиз тярк болмас, башсиз бўрк болмас - бошсиз бўрк бўлмаганидек, тотсиз турк бўлмайди. I, 333-б.

5. *Қош қіліч қінқа сїгмас* — қүш қилич бир қинга сиғмайды. Бу мақол бир иш учун интилган икки киши, бир қизга совчи юборган икки одам ҳақида ҳам сўзланади [I, 340].

6. *От тұтұңсіз болмас, жігіт жазуқсіз болмас* — олов тутунсиз бўлмас, йигит гуноҳсиз бўлмас [I, 380].

7. Алімчі арслан, бўрімчі сїчган — олувчи арслон, берувчи сичқон. I, 387-б.

8. Алімчі – арслан, бўрімчі – сїчган – қарз берувчи –арслон, қарз олувчи – сичқон (қарз берувчи(пулдор) хужум қилишда гуё арслон, қарздор эса қўрқув, вахима босганидан сичқон кабидир)

9. *Субузганда ёв болмас,*

*Тубурғандада aw болмас*

Тириклар учун эски гўрларда уй бўлмайди. Шунингдек, қуруқ тупроқли ерда ов бўлмайди. Ов сувли кўкатли жойларда бўлади [I, 472].

10. *Умајқа табінса огул болур* — кимки бунга хизмат қилса, у ўғил кўради, демакдир. Хотинлар яхшилик кутадилар [I, 144].

11. *Ус ўшкўрса ölyр* — бургут қуш бировнииг бетига қараб сайраса, ўшқирса, ўлимнинг аломати деб ҳисоблайдилар [I, 232].

12. *Тұнла буліт öртәнсä,*

*Ёwлýк урї кёлдірмішä болур.*

*Таңда буліт öртәнсä,*

*Эвгä jaғi кіrmішä болур.*

Кечқурун булат қизарса, хотини ўғил түққандек, эрталаб булат қизарса, душман уйга киргандек бўлади. Сўнгисини яхши ҳисобламайдилар [I, 252].

13. Тай ататса, ат тїнур,

Огул ёрәzsä ата тїнур.

Той улғайса от тинади (яъни от минишдан қутқарилади), ўғил ўssa ота тинади (яъни бола топган ҳосил отани тиндиради).

*Önäkäj ipnäldi ўи* – ишнинг тузалиши қасд қилинди, лекин бузилиб қолди [I, 246].

## **Adabiyotlar:**

### **I. Siyosiy adabiyotlar**

1. Karimov I. Buyuk kelajak sari. - Toshkent, «O'zbekiston», 1990.
2. Barkamol avlod orzusi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. - Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.
3. Inson baxt uchun tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning hikmatli so'zlaridan. - Toshkent, Sharq, 2001.
4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent, Yangi asr avlodi, 2001.

### **II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar**

1. Абдурахимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1986. -216 б.
2. Абдураҳмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Ташкент, 1999.
3. Абдураҳмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. -Ташкент: Ўқитувчи, 1973.
4. Аникин В.П. Словарь русских пословиц и поговорок. -Москва: Советская энциклопедия, 1966.
5. Бартольд В.В. Киргизы (исторический очерк). - Фрунзе, 1943.
6. Баскаков Н.А. Тюркский языки. –М.: Наука, 1960.
7. Бердиёров X., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Ташкент: Ўқитувчи, 1984. -286 б.
8. Даляр В.И. Пословицы русского народа. –Москва, 1957. -518 с.
9. Древнетюркский словарь. –Ленинград: Наука, 1969.
10. Дадабоев Х. Общественно-политическая и социално-экономическая терминалогия сторотюркских памятников XI-XIV вв. -Ташкент: Ёзувчи, 1991.

11. Дадабоев X.,Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили тарихи. - Тошкент: Фан, 2007.
12. Жузе П.К. Диван лугат ат-турк // Известия Восточного факультета Азербайджанского Государственного университета. т. I. -Баку, 1926; т. II. - Баку, 1928.
13. Жуков В.П. Словарь русских пословиц и поговорок. -Москва: 1966. - 536 с.
14. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. -Самарқанд: СамДУ, 2002. - 23 б.
15. Садриддина М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Ташкент, 1964.
16. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Нега шундай деймиз. -Тошкент, 1988. -352 б.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. / А.Мадвалиев таҳрири остида. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006- 2008.
18. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
19. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. -Тошкент: Университет, 2000.
20. Кошғарий М. Девону луғотит турк (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). Т. I-II-III. -Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. -529 б.; Т. II. 1961. - 488 б.; Т.III. 1963. - 468 б.
21. Пинхасов Я.Д. Ўзбек тили фразеологияси ҳақида. - Тошкент, 1957. -27 б.
22. Соатов Б.А. Мақолларнинг матал ва топишмоқларга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент: 1987. -№ 5. -Б. 38-40.
23. Содиқова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993. -96 б.

24. Тилавов Б. Поэтика таджикских народных пословиц и поговорок. – Душанбе: Ирфон, 1967.
25. Маллаев Н. Эски ўзбек адабий тили. // Илмий асарлар, V китоб, Ўзбек адабиёти. –Тошкент: 1962. –Б. 74-80.
26. Маллаев Н. Энг қадимги оғзаки адабиёт ёдгорликлари. // Тил ва адабиёт масалалари, XIX том. –Тошкент: 1961. –Б. 69-81.
27. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Матны и исследования. -М-Л.: 1951. -305 стр.
28. Муталибов С. "Девону луготит турк"нинг ўзбек тилига муносабати масаласи // Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. I том. – Тошкент: Фан, 1960.
29. Муталибов С. Морфология ва лексика тарихидан очерк. - Тошкент: Фан, 1950.
30. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
31. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. - Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
32. Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
33. Фитрат. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар. V жилдли. - Тошкент: Маънавият, 2006. -IV жилд. –Б. 11-88.
34. Ўзбек халқ мақоллари. 1-жилд. А- О. –Тошкент: Фан, 1987. -368 б.
35. Рибникова М.А. Русские пословицы и поговорки. – Москва: АНССР, 1961.
36. Имомов К. Мақоллар. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Тошкент: 1980.
37. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990. -528 б.
38. Карриев Б.М. Туркменские пословицы и поговорки. –Ашхабад, 1961.

39. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослииги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002. -232  
б.